

**BOLA SHAXSI RIVOJLANISHIDA OTA OBRAZINING
PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

Nuriddinova Gulzora Qahramon qizi
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani
45-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bola shaxsi rivojlanishida ota obrazining psixologik ahamiyati, uning farzand tarbiyasi va shaxs kamolotiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, otaning emotsional qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni hamda farzandning o'ziga bo'lgan ishonchi va hayotiy qadriyatlarining shakllanishidagi roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ota obrazi, bola shaxsi, oila, tarbiya, psixologik rivojlanish, emotsional yaqinlik, ijtimoiylashuv, ota-ona, o'ziga ishonch, oilaviy munosabatlar.

KIRISH

Oila bolaning ilk ijtimoiy muhitini tashkil etuvchi eng muhim tarbiya maskani hisoblanadi. Bola shaxsining shakllanishida ota-onaning ta'siri beqiyos bo'lib, ayniqsa ota obrazi farzandning psixologik rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ota nafaqat oilaning moddiy ta'minotchisi, balki farzand uchun namuna, maslahatchi va hayotiy qadriyatlarni shakllantiruvchi shaxs sifatida ham ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota bilan yaqin va ijobiy munosabatda bo'lgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch, mas'uliyat hissi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari yuqori darajada rivojlanadi. Ota tomonidan berilgan e'tibor va qo'llab-quvvatlash bolaning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi.

Ota obrazi bolaning ijtimoiylashuv jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Farzand otasining xulq-atvori, muomala madaniyati va jamiyatdagi munosabatlarini kuzatish orqali ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi. Ayniqsa, o'g'il bolalar uchun ota erkaklik fazilatlarini, mas'uliyat va qat'iyat timsoli bo'lsa, qiz bolalar uchun esa erkaklarga nisbatan munosabat va ishonchning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning emotsional rivojlanishida ham otaning o'rni katta. Ota tomonidan ko'rsatilgan mehr-muhabbat, e'tibor va g'amxo'rlik farzandda xavfsizlik hissini shakllantiradi. Bu esa bolaning ruhiy barqarorligi va emotsional salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, ota e'tiborining yetishmasligi yoki oiladagi nizolar bolada xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik va turli psixologik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ota obrazi bolaning axloqiy sifatlari rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, hurmat va mas'uliyat kabi fazilatlar ko'pincha ota shaxsiy namunasida shakllanadi. Bola otasining kundalik hayotdagi xatti-harakatlarini kuzatib, ulardan o'rnak oladi va o'z xulq-atvorida aks ettiradi. Zamonaviy jamiyatda otalarning tarbiyaviy faoliyatdagi ishtiroki yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Farzand bilan sifatli vaqt o'tkazish, uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, muammolarini tinglash va birgalikda faoliyat olib borish ota-bola munosabatlarini mustahkamlaydi. Bu esa bolaning sog'lom shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Oila va ta'lim muassasalari hamkorligida otalarning faolligini oshirish bolalar tarbiyasining samaradorligini kuchaytiradi. Maktab tadbirlarida ishtirok etish, farzandning ta'lim jarayoniga qiziqish bildirish va uni rag'batlantirish bolaning muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Bolaning tasavvurida ota bu shunday shaxski, uni deb ona bolani tark etishi mumkin (yotoqqa ketishi), shu sababli u salbiy emotsiyalar va kechinmalar obyektiga aylanadi, degan taxminlar ham mavjud. Otaga nisbatan nafrat ota-onalik munosabatlaridan tashqarida o'zining og'ir kechinmalari tasviri sifatida yuzaga chiqadi.

Qiz bolada ota sevgisining yagona obyekti bo'lish istagi va turmushga chiqish haqidagi o'y-xayollari onalik shaxsining ideallashuvi va paydo bo'lgan ayollik hissidan qoniqishi orqali rivojlanadi. Ona endi raqib sifatida qabul qilinadi, lekin qiz tomonidan rad etilmaydi. Bu bosqichda onaning so'zsiz sevgisi ham muhimdir, chunki qiz ota haqidagi fantaziyalari ona bilan munosabatlarining buzilishiga olib kelishi borasidagi tashvishni his etishi mumkin. Agar avvalgi nizolar edipal fazani bosib olgan bo'lsa, qizlar onadan ajralishida qiyinchiliklarga duch kelishadi va otaning sevgisi haqidagi o'y-xayollari aybdorlik hissi paydo bo'ladi, bu xatti-harakatlarda regressiyasiga olib kelishi mumkin.

Xuddi shu o'g'il bolalarga ham tegishli. Agar ona otasini qadrlamasa, bu o'g'ilni onadan ajralishini sekinlashtiradi, chunki uni ham erkak sifatida qadrsizlanishidan qo'rqadi. Agar identifikatsiyalash muvaffaqiyatli bo'lsa, bola ham qizlarning rivojlanishida bo'lgani kabi, ona bilan munosabatlarda otasining o'rnini egallashni, unga nisbatan ko'proq erkini ko'rsatishni xohlaydi. E'tibor uchun musobaqa o'rniga ota bilan to'g'ridan-to'g'ri raqobat yuzaga keladi. Endi bola uning o'rnini egallashi uchun raqib bilan identifikatsiya qiladi va undan ham ko'proq unga o'xshash bo'lishni xohlaydi. Shu bilan birga, onasi bilan sevgi munosabatlari va otaning qasosidan qo'rqish haqidagi xayoloti uchun aybdorlik hissi paydo bo'ladi. Bu salbiy his-tuyg'ular bolani o'z xohish-istaklaridan voz kechishga va ularni vaqt o'tishi bilan o'zgartiradigan keyingi davrga qoldirishga undaydi.

M. Bouen birinchi marta avlodlar uzluksizligi fenomenining muhimligiga e'tibor qaratganlardan biri edi. Uning so'zlariga ko'ra, otaning oiladan ketishi

bolalarning hissiy farovonligi uchun salbiy oqibatlariga olib keladi. Ko‘plab mualliflarning ko‘rsatishicha, o‘z otasi va uning otasi bilan ongsiz aloqa bir necha avlodlarda kuzatiladi. Avlodlarning bunday uzatilishi D. Xillgard va A. Shutserbergerlar tomonidan tavsiflangan “yillik sindromi”, N. Abraxam va M. Tereklar tomonidan shakllantirilgan “sag‘ana va sharpa sindromi”, I. Buzaremi-Nadem ning “oiladagi yashirin to‘g‘rilik sindromi” oiladagi vafot etgan yoki yo‘qolgan a‘zosi bilan anglanmagan identifikatsiyani nazarda tutadi. Sovet davrida ko‘plab oilalar qatag‘on qilingan erlar fojiasiga duch keldi va bu holatda ota o‘lgan deb hisoblandi va natijada bu voqea ko‘pchilik oilalarning oilaviy siriga aylangan.

Oilaning vorisdoshi sifatida o‘zini namoyon qilish, familiya tashuvchisi bo‘lish uchun o‘zining biologik otasini bilish juda muhimdir. Agar bola o‘gay otasi bilan yashasa ham, onasi otasi kim ekanligini yashirsa ham, bola uchun uning nasl-nasabini bilish va uning otasi borligini tushunish kerak.

Ba‘zi psixologlarning fikricha, ota-onaning ajralishi holatida ota bilan bog‘liq munosabatlarni o‘zgarishiga olib keladi, ammo tugamaydi, u bola ruhiyatida ota obrazisi sifatida va ichki ob‘yekt ko‘rinishida mavjud bo‘lib qolaveradi. Shu bilan birga, shuni ta‘kidlash kerakki, noto‘liq oilalar nafaqat otasi yo‘qligi muammosiga, balki moliyaviy qiyinchiliklarga, oila ichidagi cheklangan muloqot doirasiga, shuningdek, turmush o‘rtog‘isiz farzand tarbiyalovchi onalarning shaxsiy muammolariga ham duch keladi. Bu salbiy jihatlarning barchasi bolaning kechinmalarida ham o‘z aksini topgan bo‘ladi. Bunday bolalar oilada otaning yo‘qligiga mexanik ravishda ko‘nikkan va ba‘zi hollarda esa, otasiz o‘sayotganligi uchun muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun juda ko‘p mehnat qilish kuzitilgan.

Shutsenbergerning fikricha, muvaffaqiyatli rivojlanish uchun ota o‘rnini bosuvchi har qanday boshqa yaqin (amaki, tog‘a, do‘st kabi yaqin qarindosh yoki insonlar), uni sevuvchi kishi ta‘minlay oladigan olamga ishonch zarur. Bundan tashqari, to‘liq oilalarning farzandlarida ham to‘liq bo‘lmagan oilalarning bolalarida uchraydigan belgilarga ega: yuqori darajadagi xavotir, ijtimoiy qobiliyatsizlik, chalkash identifikatsiya va boshqa muammolar, I.S.Konning fikricha bular kam o‘rganilgan va tarbiya harakatlarini aks ettiruvchi ijtimoiylashuvning kompensator mexanizmlari hisoblanadi.

Shunday qilib, ona tomonidan tarbiyalangan bola uchun ota haqida, travmatik tajribani o‘rganish, shuningdek, atrof-muhitdagi o‘rnini bosuvchi shaxslarni bilish muhimdir.

Nazariy ma‘lumotlarni umumlashtirib, “Men obrazi”ni xulq-atvorni tartibga solish uchun mas‘ul bo‘lgan va quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan tuzilma ko‘rinishida taqdim etish mumkin: hayot-ma‘no oriyentatsiyalari; kognitiv; affektiv; konativ.

Psixologiyada bir-birini to'ldiruvchi va ziddiyatlarni o'z ichiga olgan "Men konsepsiyasi", "Men obrazi" va shaxsning o'z-o'zini anglashi turli nazariy pozitsiyalardan yaqin aloqada o'rganuvchi ko'plab yondashuvlarni ajratish mumkin. Bola shaxsiyatini rivojlantirishda ota shaxsining ahamiyati madaniy-tarixiy kontekst bilan chambarchas bog'liq. Bugungi jamiyatda, biz hammamiz ham patriarxal madaniyatda yashayotganimizga qaramasdan, otadan XX asrga qaraganda oilaviy tizimga ko'proq qo'shilish kutilmoqda, shuningdek, undan bolalarga nisbatan sevgi va g'amxo'rlikning namoyon bo'lishini talab qiladi. Ota obrazi bolada erta bolalik davridanoq rivojlana boshlaydi va uning psixikasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'smirlik paytida bolada qator o'zgarishlar yuz beradi va o'smirlik davrining muvaffaqiyatli rivojlanishi bilan birga, obyektiv haqiqatga yaqinlashadi. Ona tomonidan tarbiyalangan bola uchun otani bilish, travmatik tajribani o'rganish, shuningdek, atrofdagi figuralarni almashtirish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda ideal ota haqida muvaffaqiyatli, oilaning moddiy farovonligini ta'minlovchi, qat'iy, qattiqqo'l, mustaqil, kam hissiyotli ota obrazi mavjud; bola uni hurmat qiladi va uning avtoritetini tan oladi. Bundan tashqari, zamonaviy otalar idealdan juda uzoq deb hisoblanadi.

R.V.Ovcharova ota-onalarning o'xshash ideallarini topish tendensiyasini ilgari suradi. Insonning ta'lim darajasi qanchalik baland bo'lsa, jamiyatning stereotiplaridan qanchalik uzoq bo'lsa, ota-onasining ideali an'anaviy g'oyalarni afzal ko'ruvchi o'rta ma'lumotlilarga qaraganda ko'proq androgin, turli xil bo'ladi.

Oila tarbiyasi psixologiyasi ota-ona mavqeini maqbullashtirish g'oyasini ilgari surdi. Ota-onalarning tarbiyadagi mavqei bola qanday bo'lsa, o'ziday qabul qilsa, unga iliq munosabatda bo'lsa, xolisona baho bersa va shu baho asosida tarbiyalasa, bola hayoti sharoitidagi o'zgarishlarga muvofiq ta'sir usullari va shakllarini o'zgartira olsa, maqbuldir. Maqbul ota-ona pozitsiyasini qabul qilish uchun otaga quyidagi psixologik sifatlar kerak: farzandi bilan o'zaro munosabat chizig'i yaratish, tushunuvchan, moslashuvchan va bashoratli bo'lish, aks holda ota-ona bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga hissa qo'sha olmaydi. Ota-onaning maqbul pozitsiyasi uch asosiy mezonlarga javob berishi kerak: adekvatlilik, prognoz qilish va moslashuvchanlik. Kattalar pozitsiyasining adekvatliliigi bolasining xususiyatlarini haqiqiy aniq baholashga, ularning individualligini ko'ra bilish, tushunish va hurmat qila olishga asoslanadi.

Ota-ona farzandidan nimaga erishmoqchi ekanligiga asosiy e'tiborni qaratmasligi kerak; uning imkoniyatlari va mayllarini bilish va hisobga olish muvaffaqiyatli rivojlanishning eng muhim shartidir. Ota-ona pozitsiyasining moslashuvchanligi muloqot uslubini o'zgartirishga tayyorlik, bolaga ta'sir qilish usullari va oilaning turmush sharoitidagi turli o'zgarishlar bilan bog'liq. Infantilizatsiya pozitsiyasi muloqot to'siqlariga, har qanday talabga nisbatan

itoatsizlikka, isyonga va noroziliklarga olib keladi. Prognoz qilish pozitsiyasi bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ga oriyentatsiyasida va ertangi kunning vazifalarida ifodalanadi. Bu kattalarning tashabbusi bolaga umumiy yondashuvni uning rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq holda o‘zgartirishga qaratilgan.

D.Blenkenxorn Good Family Man (“Yaxshi oilaparvar”) otalikning rolli modelini shakllantirgan. Uning axloqiy qadriyatlari, shaxsiy “Men”ining maqsadlari, erkaklik me‘yorlar, ya‘ni “yaxshi oilaparvar”, ta‘minlovchi, himoya qiluvchi, tarbiyalovchi va o‘z avlodini qo‘llabquvvatlovchi sifatlarni belgilaydi. Ian Bryusning fikricha, yaxshi ota bo‘lish uchun bu haqida nazariy ma‘lumotga ega bo‘lishi va bu bilimlarni bolalar bilan kundalik munosabatlarda amalda qo‘llashi kerak. Muallif “yaxshi ota”ning asosiy xususiyatlarini ajratadi:

- yaxshi ota shunchaki yaxshi ko‘radi: bolalarning xulq-atvoridan qat’i nazar beminnat yaxshi ko‘radi, biroq bu ota hech qachon jahli chiqmaydi va bu bolalarining xatti-harakatidan xafa bo‘lmasligini anglatmaydi (hislarning o‘zgarishi);
- farzandlari bilan muloqotda ochiq (ularning kayfiyati haqida so‘raydi, muammolar va qiyinchiliklar, muvaffaqiyatlar va yutuqlar haqida gapirish istagini qo‘llab-quvvatlaydi, diqqat bilan tinglaydi, ularning nuqtayi nazarini hurmat qiladi, o‘zi yaxshi ko‘rishini aytadi, o‘z xattiharakatlarini, iltimoslarini tushuntiradi – bular o‘zini oqlash uchun emas, kelajakda ularga yaxshi bo‘lishini istaydi, ochiq muloqot – “ikki tomonlama harakatli yo‘l” ekanligini deb tan oladi);
- munosabatlarni rivojlantirish uchun ularga e‘tibor qaratib birga vaqt o‘tkazadi (yaxshi otalar ham boshqa otalar kabi juda band, biroq ular bolalar bilan birga vaqt o‘tkazishi uchun vaqt topadi, o‘z hayotida ularni birinchi o‘ringa qo‘yadi);
- sabrli (bolalar xato qilganda achchig‘i chiqmaydi, maqtash bilan qo‘llab-quvvatlaydi, topshiriqlarni shoshmasdan bajarishi uchun vaqt beradi);
- xulq-atvorda taqlid qilishlari uchun yaxshi namuna bo‘la oladi (bergan so‘zi, xattiharakatlari uchun erkaklarning mas‘uliyati, so‘zi bilan ishi bir-biridan farq qilmasligi);
- xursand bo‘la oladi, bolalar bunday odamlar bilan yaxshi chiqishadi (alohida emas, balki bolalari bilan birga o‘yin-kulgu qiladi, bolalarga quvonch olib keladi, bolada ajoyib xotiralarni qoldiradi);
- bolalarini ta‘minlaydi (ehtiyojlarini qondirish, ehtiyoj-lar va injiqliklari o‘rtasidagi farqni anglashga yordam beradi);
- o‘z-o‘zini takomillashtirishga intiladi (ota-ona majbu-riyatlarini munosabatlarida, faoliyatning boshqa sohalarida mag‘rurlikdan qochadi, bu bolalarga hayotda muvaffaqiyatga erishish-larida ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ota obrazi bola shaxsi rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Ota tomonidan yaratilgan sog‘lom psixologik muhit, mehr-muhabbat va to‘g‘ri tarbiya bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli farzand tarbiyasida otaning faol ishtiroki barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi va oilaviy munosabatlar. – Toshkent, 2018.
6. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya lichnosti. – Moskva.
7. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent.